

BOLA TARBIYASIDA ONANING QANCHALIK ISHTIROKI MAVJUD

Eshnazarova Gulsanam Faxriddin qizi

O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti

Ingliz filologiyasi fakulteti 1-kurs talabasi

Gulsanameshnazarova5@gmail.com

Ilmiy rahbar: Bannopova Z.X

Annotatsiya: Farzand olloh tomonidan in'om etilgan eng katta boylik. Uning ta'lim va tarbiyasi ham shunga ko'ra o'ta nozik jabhallarda namoyon bo'ladi. Xo'sh bunday murakkab mavzuda eng asosiy rol kimning bo'ynida?? Atrof muhitdagi insonlarningmi? yoki ota-onalarning javobgarligidami?. Hammaga ma'lumki, har bir inson tug'ilganida ollohning eng yaqini, ya'ni gunohsiz farishtadek dunyoga keladi. Lekin xalqimiz orasida shunday shaxslar ham borki, inson sanab o'tgisi ham kelmaydi, bunday insonlarning tarbiyasi yurtimizda qay chog'lik o'rin egallagan o'zi. Bugungi maqolada insonlarning eng odil shaxs bo'lib yetishishida kimlarning qanday amallari muhim ekanligi haqida ilmiy ma'lumotlar bilan tushuntirib beriladi. Shuningdek, Abdulla Avloniy bobomiz o'zining "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida aytganidek, "Tarbiya biz uchun yo hayot -yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir". Shunday ekan, albatta biz bu mavzuga yuzaki qarab xulosa chiqara olmaymiz.

Kalit so'zlar: ma'naviy kasallik, mehnat tarbiyasi, erta ta'lim, salohiyati rivojlanishi, anglay olish qobiliyati, ruxiy bosim.

Kirish: Dunyoda ko'plab bolalarning salohiyati insonni hayratga solmay qo'ymaydi. Ayniqsa ingliz tilida aytib yuritiladigan "Speed reader" ya'ni kitobni oz vaqt ichida ko'pgina varoqlarini o'qiy oladigan shaxslarning miyya faoliyati jamiki barcha olimlarimizni yanada izlanish olib borishiga turtki bo'lmoqda. Xalqimiz orasida esa bunday shaxslar tug'ilish davrida o'zining qobiliyati bilan dunyoga kelgan deb yuritiladi. Ammo, Masru Ibuka o'z asarida ya'ni "Uchdan keyin kech" asarida hech

qaysi farzand jins taraflama ota-onasining qobilyatini olib,tug'ma qobilyatli bo'lib dunyoga kelmaydi deb aytib o'tadi.Uning ko'rsatmasiga tayanadigan bo'lsak, bola toki 3 yoshligigacha butun bir olamdagi predmetlarni ongli ravishda tahlil qilib borar ekan .Hatto ular ota-ona muloqotidagi munosabatni tushinishga ham yoshlik qilmas ekan.Ba'zan ko'pchilik yosh bolaku talqinida, bolaning ko'z o'ngida janjal ,turli xil kelishmovchiliklarni baqirish yo'li bilan hal etmoqchi bo'ladi.Bu esa tabiiyki, bolalarning ruxiy bosim olishiga sabab bo'lar ekan,bu dastlab yig'lash,turli xil injiqliklar qilish,yoki ayrim insonlarning miyyasida balog'at davrida 12 yoshligidan to 18 yoshligigacha o'zining fikrini ota-onasining fikridan ustun ko'rish orqali shakllanar ekan.Ammo ba'zi tip vakillari borki, aynan balog'at davrida o'z fikrini ochiq-oydin yuritib bera olmaydi va bunday shaxslar kelajakda ham o'zi yolg'iz qaror qilishga qiynaladi.

Bola tarbiyasi haqida yurtimizda ko'plab asarlar borki,achinarli tomoni insonlar bunday ma'lumotlarga tayanib ish kurmaydi.Natijada bolam nega unaqa kamgap yoki dars qilishda ishtiyoqi sust deb nologani-noligan.Abu Ali Ibn Sino bobomiz “ Tadbir almanozil” asarida bolaning salohiyatida mehnat tarbiyasi muhimdir deb aytib o'tadi.Ota-onalar bolalarini yoshligidan uydagi yumushlar orqali; tozalash ishlari kabi jabhalarda vaqt ajratib farzand bilan birga amalga oshirsa ,bu bolalarning yoshligidan turli xil masalalarga beparvolik bilan yondashmasligiga, turli xil ishlarda ham gigiyena masalasini 1-chi o'ringa quyishida ham eng katta omil hisoblanar ekan.Shunday bo'lsada,ba'zi imkoniyati cheklangan insonlar hayoti va anglay olish qobilyatining rivojlanishi bunday fikrlardan ancha yiroq hamdir.

Anton Semenovich Makarenkoning “ Tarbiyaviy ta'sirning g'oyat qudratli ta'sir ko'rsata olishiga ishonchim komil. Agar odam yomon bo'lsa, bunda faqat tarbiyachilar aybdorligiga aminman. Agar bola yaxshi bo'lsa , buning uchun u tarbiyadan, o'z bolaligidan qarz dordir”-degan so'zlari orqali hozirgi kunning enagalari hisoblangan onalarning bola tarbiyasida katta o'rni borligini bilishimiz mumkin.Xo'sh, tarbiyani qachondan boshlab bermoq kerak? Degan savolga buyuk mutaffakir Yusuf Xos Xojib “ Qutadg'u bilig” asarida; har bir kishi jamiyatga munosib bo'lib kamol

topmog'I kerak. Buning uchun u tug'ilganidan boshlab zarur tarbiyani olmog'I lozim. Farzandlar tarbiyasi nihoyatda erta boshlanmog'I shartdir o'shandagina ularni noo'rin xatti-xarakatdan asray olamiz deydi yozuvchi.

Xulosa: Bolalarning tarbiyasini, albatta yoshligidan bermoq maqsadga muvoffiqdir. Bu kabi masalalarda esa ilmiy izlanishlarni chetda qoldirmaslik kerak. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev aytganlaridek : “ Kelajak- yoshlarning qo'lida”. Biz yosh avlodni ba'zi bir temperament vakili bo'lishidan asramog'imiz lozimdir. Masalan: melanxolik temperamentga kiradiganlar; xotirjam, befarq, kamharakat, flegmatik temperamenti esa; nutqi sust bolalar guruhidir, xolinek temperamentlar; jaxldor, betoqat, serzarda, xarakatchan bolalar guruhidandir. Yoshlar esa doimo o'z fikrini ommaning oldida hech qanday qiyinchiliksiz yoritmog'I lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Z.I. Qayumova. G.B. Tosheva cyberlenika.ru. Toshkent 2020
2. P.M. MUhammadiyevna international scientific journal bola tarbiyasi haqida Andijon 30.04.2025
3. bolahuquqlari.uz\ru\article\101
4. Ibuka Massari “uchdan keyin kech” Toshkent. Akademnashr 2019.